

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2,4 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **0,9 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,1 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-aprel oyida Toshkent shahrida 4,2 yilning boshiga nisbatan mingga yaqin korxonalar va faoliyat ko'ssatayotgan korx-tashkilotlar yangi tashkil ona va tashkilotlar soni 2,4 etildi, bu esa o'tgan yilning mingta (3,8%) ga shu davriga nisbatan 0,3 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tut-gatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 % ga kamaygan hamda ular ning soni 1,2 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,4 mingta (3,8%) ga shu davriga nisbatan 0,3 mingtaga ko'pdir.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,6 %), Chilanzorda (12,7%), Mirzo Ulug'bekda (11,8 %) va Olmazorda (10,1 %) tumanlarida kuzatilmoxda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent shahar</b>	<b>65,4</b>	<b>100,0</b>	<b>63,7</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:				
Uchtepa	5,5	8,4	5,4	8,5
Bektemir	1,3	2,0	1,3	2,0
Yunusobod	8,9	13,6	8,7	13,7
Mirzo Ulug'bek	7,6	11,6	7,5	11,8
Mirobod	5,7	8,7	5,6	8,8
Shayxontohur	6,7	10,2	6,5	10,2
Olmazor	6,6	10,1	6,5	10,2
Sergeli	3,7	5,7	3,6	5,7
Yakkasaroy	5,9	9,0	5,8	9,1
Yashnobod	5,1	7,8	4,7	7,4
Chilonzor	8,4	12,9	8,1	12,7


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,3 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,9 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,6% sanoatda , 19,5 % savdoda, 7,3% qurulishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3 % tashish va saqlash, 3,7 % axborotva aloqa, 2,0 % soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 35,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda**




2018 yil yanvar-aprel holatiga 4361 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,7 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (609 ta), Chilonzor (546 ta), Mirzo Uluq'bek (513 ta) va Olmazor tumanlarida (448 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (111 ta), Sirq'ali (245 ta) hamda Yashnobod (329 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (1099 ta), sanoatda (830 ta) va qurilishda (493 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (91 ta), tashish va saqlashda (189 ta) va axborot va aloqada (226 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>4025</b>	<b>4361</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	111	91
Sanoat	1105	830
Qurilish	386	493
Savdo	705	1099
Tashish va saqlash	160	189
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	381	319
Axborot va aloqa	169	226
Sog'lugni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	63	75
Boshqa turlari	945	1039

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi boshqa faoliyat turlarida (-1,0 f.p dan), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (-0,2 f.p.), tashish va saqlash (-0,1 f.p.dan), soq'lijni saqlash va ijtimoy xizmatlar ko'rsatish (-0,1 f.p.dan) kamayganligi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), sanoatda (+0,2 f.p.dan), axborot va aloqada (+0,3 f.p.dan), Savdo (+0,4 f.p.dan), qurulishda (+1,1f.p.dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari nomi</b>	<b>01.05.2018 y.</b>	<b>01.05.2017 y.</b>	<b>farqi (+-)</b>
Boshqa turlari	35,3	36,3	-1,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,5	-0,2
Tashish va saqlash	4,3	4,4	-0,1
Soq'lijni saqlash va ijtimoy xizmatlar ko'rsatish	2,0	2,1	-0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1,0	0,9	+0,1
Sanoat	19,6	19,3	+0,2
Axborot va aloqa	3,7	3,4	+0,3
Savdo	19,5	19,2	+0,4
Qurilish	7,3	6,9	+1,1

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 may holatiga 55,3 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 8,9 mingta, oilaviy korxonalar – 2,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 43,0 mingta, aktsiyadorlik jamiyatları – 0,2 mingtani va boshqalar 1,2 mingtani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 3883 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 451 taga yoki 11,6 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 1918 tasi qo'shma korxonalar, 1965 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Mirobod tumani 640 ta (16,4 %), Yakkasaroy 630 ta (16,2 %) va Yunusobod tumanlari 483 ta (12,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 209 ta (5,3 %), Sergeli 160 ta (4,1 %), Uchtepa 112 ta (2,8 %) va Bektemir tumanlarida 96 ta (2,4 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishslashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlani 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1176 ta (30,3 %), savdoda 969 ta (25,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 919 ta (23,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 33 ta (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 58 ta (1,5 %), tashish va saqlashda 136 ta (3,5 %), axborot va aloqada 141 ta (3,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 186 ta (4,8 %) va qurilishda 265 ta (6,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sog'liqni saqlash va ijtimoyxizmatlar ko'rsatish faoliyat turlariga to'gri keladi.



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 378 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 231 taga ko'paygan yoki 2,5 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 79 ta, Turkiya Respublikasi – 57 ta, Qozogiston Respublikasi – 60 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 35 ta va Koreya Respublikasi – 29 ta yangi korxonalar royxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holtiga) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 81 ta, sanoatda 71 ta, qurilishda 23 ta, axborot va aloqada 15 ta, va boshqa faoliyat turlaridpppppa 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 54,6 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 9,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7419 tasi (13,5%) Yunusobod tumaniga, 6950 tasi (12,7 %) Chilonzor tumaniga, 6351 tasi (11,6 %) Mirzo Uluq'bek tumaniga va 5791 tasi (10,5 foizi) Olmazor tumaniga.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 54,6 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 12,3 mingtasi (22,6 %) - sanoatda, 12,2 mingtasi (22,5 %) – savdoda, 4,6 mingtasi (8,5 %) - qurilishda, 4,5 mingtasi (8,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,6 mingtasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 2,3 mingtasi (4,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 1,0 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,1 mingtasi (25,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 4,1 mintaga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 6,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (565 ta), Chilonzor (516 ta), Mirzo Uluq'bek (481 ta) va Olmazor tumanlarida (435 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (108 ta), Sirq'ali (232 ta) hamda Yashnobod (317 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1096ta), sanoatda (828 ta), qurilishda (493 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (73 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (88 ta) hamda tashish va saqlashda (189 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 2082 tani tashkil etib, ulardan 2035 tasi yoki 97,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtaча **21,2 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,5 % yoki 906 tasi sanoat, 16,2 % yoki 329 tasi savdo, 16,0 % yoki 326 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,4 % yoki 48 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 36 tasi qurilish, 1,6 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 17 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,9 % yoki 323 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Nashr uchun mas'ul:** A.Rashidov  
(0371) 230-88-31



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat**  
**registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida**  
**tayyorlangan**